Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasi tomonidan “Sevinch” mahalla aholisi va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda erta nikohlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbir

BAYONNOMASI

2025 yil 11 mart **Toshkent shahri**

Ishtirok etdilar: Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri Sh. Shoyimova, kafedra professor-o‘qituvchilari, Yunusobod tumani Sevinch mahallasi vakillari, mahalla aholisi hamda yoshlar.

KUN TARTIBI:

1. **Aholi va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini keng targ‘ib qilish.**
2. **Erta nikoh va uning salbiy oqibatlari, oilaviy hayotga tayyorgarlik masalalari bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish.**
3. **Yoshlar o‘rtasida tibbiy, psixologik va huquqiy madaniyatni oshirish.**

ESHITILDI: 2025-yil 11-mart kuni Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasi tashabbusi bilan Yunusobod tumani Sevinch mahallasi bilan hamkorlikda Jamoat salomatligi texnikumida mahalla aholisi va yoshlar ishtirokida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda erta nikohlarning oldini olishga bag‘ishlangan profilaktik tadbir tashkil etildi.



Tadbirning asosiy maqsadi aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini keng targ‘ib qilish, tibbiy va psixologik savodxonlikni oshirish, erta nikohlarning oldini olish, oila va nikohning ijtimoiy hamda ma’naviy ahamiyatini tushuntirishdan iborat bo‘ldi.

Tadbirni Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri Sh. Shoyimova ochib berib, bugungi kunda sog‘lom avlodni tarbiyalash, yoshlarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligini ta’kidladi.

Ta’kidlanganidek, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish nafaqat kasalliklarning oldini olish, balki insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlar orasida to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik, shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish, zararli odatlardan voz kechish va reproduktiv salomatlikka mas’uliyat bilan yondashish madaniyatini shakllantirish zarurligi qayd etildi. Shuningdek, erta nikoh masalasi bugungi kunda nafaqat oilaviy munosabatlar, balki tibbiy, psixologik, ijtimoiy va huquqiy jihatdan ham alohida e’tibor talab etadigan dolzarb muammolardan biri ekanligi ta’kidlandi. Erta nikoh yoshlarning ta’lim olish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini cheklashi, ularning mustaqil hayotga tayyorgarligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, oilaviy munosabatlarda psixologik qiyinchiliklar va nizolarni keltirib chiqarishi mumkinligi tushuntirildi.



Ayniqsa, qizlarning jismoniy va reproduktiv salomatligi nuqtai nazaridan erta homiladorlik bilan bog‘liq xavflar, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, onalikka tibbiy hamda psixologik jihatdan tayyor bo‘lish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Oila qurishda yoshning o‘zi emas, balki shaxsning jismoniy, ruhiy, ma’naviy va ijtimoiy yetukligi, mas’uliyatni anglashi ham muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etildi.

Kafedra professor-o‘qituvchilari o‘z ma’ruzalarida oila institutini mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas’uliyati, oilada o‘zaro hurmat va ishonch muhitini shakllantirish masalalarini atroflicha yoritdilar. Bundan tashqari, yoshlar o‘rtasida sog‘lom psixologik muhitni qaror toptirish, turli nizoli vaziyatlarning oldini olish, oilaviy munosabatlarda sabr-toqat, o‘zaro tushunish va mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishning ahamiyati tushuntirildi.



Tadbir davomida ishtirokchilarga sog‘lom turmush tarzi, reproduktiv salomatlik, erta nikohlarning oldini olish va oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylashga oid amaliy tavsiyalar berildi. Shuningdek, mavzu yuzasidan savol-javoblar tashkil

etilib, ishtirokchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan tegishli javoblar oldilar.

Tadbir yakunida aholi va yoshlar o‘rtasida profilaktik-ma’rifiy tadbirlarni muntazam tashkil etish, sog‘lom turmush tarzi madaniyatini yuksaltirish hamda erta nikohlarning oldini olish borasida mahalla va ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish zarurligi ta’kidlandi.

QAROR QILINDI:

1. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va erta nikohlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar muntazam ravishda tashkil etib borilsin.
2. Mahalla aholisi va yoshlar o‘rtasida tibbiy-psixologik va ma’rifiy tushuntirish ishlari kuchaytirilsin.
3. Mahalla bilan hamkorlikda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularning salomatligi va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan targ‘ibot ishlari davom ettirilsin.
4. Mazkur yo‘nalishdagi hamkorlik aloqalari izchil davom ettirilsin.

Tadbirni bayonlashtiruvchi Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) **A.K.Xudayberdiev**

